

O`ZBEKISTON XALQINING MADANIY MEROSI "MATO"NING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xoliqova Mahliyo Alisher qizi

Tayanch doktorant, ,

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti,

Annotatsiya: *Samarqandda bo`lib o`tgan, "O`zbekiston madaniy merosi – yangi Renessans asosi" VII Xalqaro congress. Buyuk ipak yo`lida, shakllangan hunarmandchilik turidan biri bo`lmish gazlamachilik, uning yaratilishi. Mato tarkibiga ko`ra abr matolar guruhi. Abr matolardagi naqshlarning turlari.*

Kalit so`zlar: *Atlas, adras, shoyi matolar, ipak qurti, tut daraxti, tanda ip, arqoq ip, abr, hunarmandlar, gazlama.*

Joriy yilning 5–8 noyabr kunlari Samarqand shahridagi Silk Road Samarqand sayyohlik majmuasi hududida O`zbekiston madaniy merosini o`rganish, saqlash va ommalashtirish bo`yicha Butunjahon jamiyatining "O`zbekiston madaniy merosi – yangi Renessans asosi" VII Xalqaro kongressi bo`lib o`tdi. Kongress ERIELL GROUP xalqaro neft-servis kompaniyasi ko`magida hamda bir qator milliy va xalqaro hamkor tashkilotchilar ishtirokida tashkil qilingan.

O`zbekiston madaniy merosini o`rganish, saqlash va ommalashtirish bo`yicha Butunjahon jamiyati 2018-yilda dunyoning 300dan ortiq sharqshunoslari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo`lib, 2019-yili Parijda rasman ro`yxatdan o`tgan, joriy yilda esa Toshkentda ham o`z vakolatxonasini ochdi. Kongress Butunjahon jamiyatining an`anaviy yillik tadbiri bo`lib, hozirda 40dan ortiq davlatdan 300ga yaqin olimlarni birlashtirgan.

O`zbekiston madaniy merosini o`rganish, saqlash va ommalashtirish bo`yicha Butunjahon jamiyati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan ochiqlik, O`zbekiston xalqining madaniy merosini o`rganish, saqlash va targ`ib etish borasidagi siyosati va bevosita ko`magi natijasida yuzaga kelgan. Ushbu loyiha o`tmishda zaminimizda yaratilgan va hozirda turli sabablar tufayli dunyoning yirik kutubxonalari va muzeylarida, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan san`at va madaniyat durdonalari haqida ma`lumot to`plash maqsadida tashkil etilgan. O`tgan davr mobaynida yuzlab

olimlar, mahalliy va xalqaro ekspertlar, mutaxassislar ko'magida dunyoning turli o'lkalarida saqlanayotgan noyob madaniy merosimiz haqida to'plangan ma'lumotlarning 60 jildi "O'zbekiston madaniy merosi" turkumida chop etildi. Bu yilgi kongressimizda esa mazkur turkumda 61-70 jilddan iborat 10 ta yangi kitob-albom taqdim etildi.

Bundan tashqari yana o'ndan ortiq noshirlik loyihalarimiz taqdimotlari o'tkaziladi. Albatta, bularni to'plash oson bo'layotgani yo'q. Lekin hukumatimiz va homiy tashkilotlar ko'magida, zahmatkash olimlarimizning izlanishlari natijasida noyob manbaalarni o'rganishga va ularni xalqimizga hamda butun dunyoga O'zbekiston madaniy merosi sifatida taqdim etishga erishayapmiz, - deydi O'zbekiston madaniy merosini saqlash, o'rganish va ommalashtirish Butunjahon jamiyati raisi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Firdavs Abduxoliqov.³⁰

Yevropa va Osiyo xalqlarini birlashtirgan Buyuk ipak yo'li savdo-sotiqning rivojlanishiga zamin yaratgan. Bu esa nafaqat san'at va madaniyat balki hunarmandchilik va liboslar bo'yicha ham o'zaro aloqalarning yo'lga qo'yilishiga yordam bergan. Asrlar davomida shakllanib, sayqallanib va rivojlanib borgan o'zbek milliy liboslari xalqimiz xarakteri, kundalik turmushi va urf-odatlarini o'zida mujassam etadi. Ushbu jihatlar libos bichimi, tayyorlash texnologiyasi, matolardagi tasvirlar, bosh kiyimning ramziy belgilarida, liboslarning naqshinkor ranglari o'zining ma'nolari bilan uyg'unlashgan.

Ma'lumki O'rta Osiyo o'zining sifatli matolari bilan dong taratgan bo'lib, matolar sovg'a-salom, savdo va eksportning asosiy vositasi hisoblangan. Bu yerda ip-gazlama, jun, shoyi va nimshoyi matolar, to'qimachilik dastgohlarida to'qilgan polotno, reps, sarj, gobelen shuningdek, turli nimshoyi va nimjun aralash matolar tayyorlangan. Ayniqsa sehrli ranglar uyg'unlashtirilib, mo'jizali naqshlangan zandonachi va abrli usulidagi shoyi hamda nimshoyi matolar shuhrat qozongan. To'qimachilikda ranglarga boy bo'lgan junli, keyinchalik shoyimato tayyorlash muhim o'rin tutgan. Ularning naqsh va gullari arqoq yordamida yaratilib, asosiy iplari mahkam o'ralgan. Mato to'qishning mazkur texnikasi ko'p mehnat va mablag' talab qilgani bois, to'qimachilar qimmatbaho shoyilarning bezak va gullarini ancha arzon bo'lgan paxtadan ishlashni o'zlashtirganlar.

³⁰ Society.uz

Shuningdek, Misr, Eron, Xitoy va Vizantiya, keyinroq esa Yevropa va Rossiyada keltirilgan matolar ham an'anaviy liboslar yaratilishida kata ro'l o'ynagan.³¹

Hunarmandchilik turi sifatida shoyichilik eramizdan avvalgi II minginchi yilda Xitoyda yuzaga kelgan bo'lib, vaqt o'tib butun Buyuk ipak yo'li bo'ylab, shuningdek, O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Mahalliy ipak matolarning ilk saqlanib qolgan namunalari V-VII asrga borib taqaladi. Ular zandanachi sifatida mashhur bo'lgan, ya'ni Buxoro yaqinidagi Zandana qishlog'ida yasalgan. XVIII asrdan boshlab va XXasr boshigacha to'qimachilik gullab yashnashining yorqin davrlarini boshdan kechiradi. O'zbek xonliklarining ustalari ip gazlamalar: beqasam, banoras, atlas, duro'ya, yakro'ya, baxmal; ipak gazlamalar:shoyi, atlas, xonatlas, ishlab chiqarishgan.

O'zbekiston davlat san'at muzeyi kolleksiyasida abr matolar alohida ahamiyat ega. Ularning nomi abrbandi sifatida ma'lum bo'lgan murakkab va serdiqqat ishlab chiqarishning usuli bilan bog'liq. Ushbu usul asos iplarning alohida qismlarini bog'lash, keyinchalik naqsh va rangiga ko'ra bosqichma-bosqich bo'yash yo'li bilan rezervatsiya qilishdan iborat. Natijada noaniq konturlarga ega bo'lgan rang-barang naqshli matolar hosil bo'lgan. G'arbda iplarni shunga o'xshash usulda bo'yash yo'li bilan foydalangan holda yaratilgan matolar ikat nomi bilan ma'lum.

Material tarkibiga ko'ra abr matolar ikki guruh - ham asos, ham arqoq uchun ipak iplar ishlatiladigan ipak matolar hamda asosi ipakdan, arqoqi paxtadan bo'lgan adras turidagi matolarga bo'lingan. Paxta arqoq ipining qalinligi asosning ipak ipidan bir necha marta kattaroq bo'lib, natijada adras yuzasi o'ziga xos chiviqli ta'sirga ega bo'lgan.

Abr matolarning naqshi turlichadir: maishiy buyumlar tasviri, o'simlik, hayvonlar surati, geometrik mavzular. Quyosh spektorning barcha ranglarini o'z ichiga olgan ko'p rangli naqshlar quyidagi nomlarga ega bo'lgan tirikamon - kamalak, bahor, chaman. XXo asr boshlariga qadar abr matolardan hozirgi O'zbekistonning markaziy hududlarida erkaklar choponi, ayollar choponi - mursak, bolalar kiyimi va ko'ylaklari tikilgan.

³¹ O'zbekiston madaniy merosi. O'zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo'yicha an'anaviy o'zbek liboslari. XLVIII "Silk road media" Toshkent, 2022y

Adraslardan yostiq, chiroyli ko`rpachalar, ko`rpalar va boshqa uy-ro`zg`or buyumlari tikilgan.³²

Milliy shoyi matolar ishlab chiqarishda Farg`ona vodiysi alohida o`rin tutgan. Farg`ona vodiysi O`zbekistonning “ipak markazi” sanalgan. Marg`ilon va Namanganda shoyi va yarim shoyi mato to`qishning o`ziga xos mahalliy maktablari yuzaga kelgan. Ularda tayyorlangan matolar o`zining to`qilishi usullari, bezak naqshlariga ko`ra bir-biridan ajralib turadi.

Shu kunlarda mato ishlab chiqarish uchun kerakli bo`lgan asosiy omil, “Yashil makon” umumxalq loyihasi doirasida “Farg`ona viloyat agropilla” MCHJ yetishtirgan o`n minglab yangi, serhosil navli tut ko`chatlari ko`chirib joylarga olib borilmoqda. 2023 yilda Farg`ona viloyatida 2400 tonna yuqori navli pilla yetishtirildi. Holbuki bu 5 yil avvalgidan 25-30 foiz ko`p. Lekin bu ham marra emas. Viloyatda tut plantatsiyalari maydoni keskin o`sishi, ozuqa muammosi hal etilgani, qurt urug`i zavodlari quvvati oshgani tufayli yaqin yillarda 3 ming tonnalik xirmon yaratish imkoni bor.

- Ikkita urug`chilik zavodimiz bor. Nasilchilik zavodida yangi duragay zotlar yaratib beriladi, - deydi Farruxbek Mamadaliyev. - Viloyatimizda ipak qurti importiga 2017 yilda chek qo`yilgan. 2023 yilda ipak qurti boqish orqali 101 ming nafar aholini ish bilan ta`minladik.

Farg`onada ishlab chiqarilgan ipakka horijda extiyoj o`sdi. Bu avvalo ipak sifati bilan bog`liq edi.

- Yetishtirilgan 2400 tonna hosil 5 ta pillachilik klasterlarida qayta ishlanyapti. Ipak Tojikiston, Xitoy, BAAGA eksport qilinmoqda, - deydi “Farg`ona viloyat agropilla” MCHJ bosh agronomi Farruxbek Mamadaliyev.

Marg`ilon shahrida hunarmandchilikning 17 ta turi bilan hunarmandlar faoliyat ko`rsatmoqda. Ularning asosiy yo`nalishlari – milliy matolar (adras, atlas) va ulardan tikuvchilik buyumlar ishlab chiqarish, milliy poyabzal ishlab chiqarish, yog`ochsozlik, yog`och o`ymakorligi, do`ppido`zlik, to`nchilik, temirchilik, misgarlik hisoblanadi. Shaharda “O`zbekipaksanoat” va “Hunarmand” uyushmalari xamkorligida eksport kilishga mo`ljallangan “SILK IKAT AND CARPET” MChJ tashkil etilib, ipak gilam va atlas- adras ishlab chikarish yo`lga qo`yilgan.

³² O`zbekiston madaniy merosi. O`zbekiston davlat san`ati muzeyi to`plami (Toshkent). XIII. Silk road media. Toshkent, 2020y.

Mohir usta hunarmand Ibrohimjon Sulstonov tashabbusi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida Hunarmandlar markazi qurilib, foydalanishga topshirildi. 600 nafar usta faoliyat boshlab, 200 ortiq turdagi atlas va adras to'qish, gilamchilik, maishiy xizmat, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ular tomonidan 2 mingga yaqin xotin-qiz, yoshlar ishga jalb etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston madaniy merosi. O`zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo`yicha an`anaviy o`zbek liboslari. XLVIII "Silk road media" Toshkent, 2022y
2. Society.uz
3. O`zbekiston madaniy merosi. O`zbekiston davlat san`ati muzeyi to`plami (Toshkent). XIII. "Silk road media". Toshkent, 2020y.
4. Levteeva L., Muxtorova R. O`rta Osiyo to`qimachilik san`ati namunalari "San`at" jurnali 3son 2019yil.
5. Handcraftman.uz
6. yuz.uz/hunarmandchilik azaliy qadriyat